



## DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINI SHAKLLANTIRISHDA SIYOSIY PARTIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI

**Xudoyberdiyeva Zinat Xayrullo qizi**

Toshkent davlat agrar universiteti yurisprudensiya yo'nalishi 2-  
bosqich talabasi  
Tel:+998502220298

**Ulmasova Madina Inamjanovna**

Toshkent davlat agrar universiteti  
yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi  
Tel:+998339349595.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20808666>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-iyun 2026 yil  
Ma'qullandi: 20-iyun 2026 yil  
Nashr qilindi: 22-iyun 2026 yil

### KEYWORDS

siyosiy partiyalar, davlat  
hokimiyati organlari,  
konstitutsiyaviy-huquqiy  
asoslar, saylov tizimi,  
parlament, hukumat, siyosiy  
vakillik, fuqarolik jamiyati,  
siyosiy pluralizm, demokratiya.

### ABSTRACT

*Mazkur ilmiy maqolada davlat hokimiyati organlarini shakllantirish jarayonida siyosiy partiyalarning tutgan o'рни va funksiyalari konstitutsiyaviy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Shuningdek, siyosiy partiyalarning saylov jarayonlaridagi ishtiroki, parlament hamda hukumat faoliyatini shakllantirishdagi roli, siyosiy vakillikni ta'minlashdagi ahamiyati va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi ilmiy yondashuv asosida yoritilgan.*

Demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida siyosiy partiyalar alohida o'rin tutadi. Ular jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini ifodalovchi, fuqarolarning siyosiy irodasini shakllantiruvchi va davlat hokimiyati organlarini tuzishda ishtirok etuvchi muhim institut hisoblanadi. Zamonaviy demokratik tizimlarda davlat hokimiyatini shakllantirishni siyosiy partiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki aynan siyosiy partiyalar saylovlar orqali davlat boshqaruviga kadrlar yetkazib beradi, qonun chiqaruvchi organlar faoliyatida muhim rol o'ynaydi hamda davlat siyosatini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. O'zbekiston Respublikasida ham siyosiy partiyalar demokratik jamiyat qurishning asosiy institutlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Konstitutsiyada siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat hayotidagi o'рни mustahkamlangan bo'lib, ularning faoliyati alohida qonunlar bilan tartibga solinadi. Shu jihatdan davlat hokimiyatini shakllantirishda siyosiy partiyalarning roli masalasini ilmiy-huquqiy jihatdan o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

### **Siyosiy partiya tushunchasi va huquqiy tabiati**

Jamiyatning siyosiy tizimi ijtimoiy-siyosiy tuzdagi munosabatlarda qatnashuvchi tashkilotlardan iborat. Siyosiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi va uning asosiy bo'g'inlaridan biri esa siyosiy partiyalardir. Shu nuqtai nazardan siyosiy partiyaning mohiyatiga to'xtalib o'tishdan avval, partiya so'zi, uning mazmuniga e'tibor qaratish lozim.

**Partiya** - (lot. partio – bo'laman, ajrataman) g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo'lgan, shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi<sup>1</sup>.

**Siyosiy partiya esa O'zbekiston Respublikasi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun 1-moddasiga** asosan muayyan siyosiy g'oyalar va dastur asosida birlashgan, davlat hokimiyatini qo'lga kiritish yoki unda ishtirok etish orqali jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatishni maqsad qilgan fuqarolar birlashmasidir. Siyosiy partiya jamiyatda kishilarni birlashtiradi va ularning maqsad-muddaolari birligini ta'minlaydi, vakillik organlari tarkibida ko'proq o'rin egallash uchun kurashib, o'z siyosiy guruhlarining manfaatlarini himoya qiladilar. Oliy Majlis, mahalliy xalq deputatlari kengashlarini shakllantirishda ular ham eng asosiy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqadilar hamda o'z nomzodlarining saylanishi bilan hokimiyatni tuzish va davlat boshqaruvida ishtirok etadilar.

Huquqiy nuqtai nazardan siyosiy partiya quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi hisoblanadi;
- siyosiy faoliyatni amalga oshiradi;
- davlat hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etadi;
- muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarini ifodalaydi;
- qonun bilan tartibga solinadigan faoliyatga ega.

Siyosiy partiyalar konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

**Vakillik funksiyasi** — fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ifodalaydi.

**Integratsiya funksiyasi** — jamiyatni birlashtiradi.

**Mobilizatsiya funksiyasi** — fuqarolarni siyosiy jarayonlarga jalb qiladi.

**Kadrlar tayyorlash funksiyasi** — davlat boshqaruvi uchun yetakchilarni shakllantiradi.

Konstitutsiyamizning 74-moddasida belgilanganidek, "Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarining moliyalashtirilishi manbalari haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar".

**Davlat hokimiyatini shakllantirish tushunchasi**

Davlat hokimiyatini shakllantirish deganda davlat organlarini tashkil etish, ularni saylash, tayinlash va vakolatlarini belgilash jarayoni tushuniladi. Bu jarayon demokratik davlatlarda xalq suvereniteti prinsipiga asoslanadi.

Davlat hokimiyati odatda uch bo'g'indan iborat:

- qonun chiqaruvchi hokimiyat;
- ijro etuvchi hokimiyat;
- sud hokimiyati.

Mazkur tizim mamlakatimiz Konstitutsiyasi 11-moddasi<sup>2</sup>da ham o'z aksini topgan. Davlat hokimiyatining bunday tuzilishi mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, har bir insonning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. T.: 2003. – B.698.

<sup>2</sup> Qarang. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 11-moddasi

Siyosiy partiyalar asosan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatni shakllantirishda faol rol o'ynaydi. Ular saylovlarda ishtirok etish orqali parlament tarkibini belgilaydi, hukumat tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi hamda davlat siyosatini amalga oshirishga hissa qo'shadi. Yuridik fanlari doktori, professor I.R.Bekov o'z ilmiy ishlari<sup>3</sup>da davlat boshqaruvida partiyalar rolini quyidagi uchta asosiy yo'nalish orqali tahlil qiladi:

Birinchi yo'nalish, siyosiy irodani shakllantirish va ijtimoiy sheriklik.

Muallif ta'kidlashicha, partiyalar shunchaki saylov oldi tashkilotlari emas, balki jamiyatning turli qatlamlari irodasini davlat organlariga yetkazuvchi asosiy mexanizmdir.

Ikkinchi yo'nalish, qonunchilik hokimiyatidagi ishtirok (Parlamentarizm). Unga ko'ra, partiyalar nafaqat qonun qabul qiladi, balki ijro hokimiyati (Hukumat) ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi a'zolarining hisobotlarini eshitishda partiya fraksiyalarining rolini oshirish — davlat boshqaruvini demokratlashtirishning bosh mezonidir. Shu o'rinda qisqacha fraksiya haqida. **Fraksiya** siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan guruhdir. E'tibor berishimiz lozim, Vazirlar Mahkamasining siyosiy partiyalar fraksiyalariga hisobotlar berib borishi bu xalq o'z vakillari orqali ijro hokimiyatining faoliyatiga baho berish imkoniyatiga egaligi hamda xalq nomidan ularning vakillari ko'targan masalalar ijrosi amalda ta'minlanayotganligidan xabardor bo'lishini, davlat boshqaruvida bilvosita ishtirok etayotganligini ko'rsatadi.

Uchinchi yo'nalish, davlat organlarini shakllantirish va kadrlar zaxirasi.

Davlat organlarini shakllantirishda siyosiy partiyalarning "kadrlar yetkazib beruvchi lift" sifatidagi vazifasi ko'rsatib o'tiladi. Partiyalar o'z sohasining mutaxassislarini siyosiy maydonga olib chiqish orqali davlat boshqaruvi apparatini malakali kadrlar bilan ta'minlaydi. Olimning fikrlariga qo'shilgan holda qayd etish kerakki, davlat hokimiyatini shakllantirishning har bir bosqichida siyosiy partiyalarning ishtiroki ko'zga tashlanadi.

### **Siyosiy partiyalarning saylov jarayonidagi roli**

Davlat hokimiyatini shakllantirishning eng muhim mexanizmi — saylovlardir. Saylov qonunchiligiga ko'ra, bu jarayonga faqat O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari ishtirok etishga haqli.

Siyosiy partiyalar saylov jarayonida quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:

#### **Nomzodlar ko'rsatish**

Partiyalar saylovlarda o'z nomzodlarini ilgari suradi. Bu orqali ular davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

#### **Saylov dasturlarini ishlab chiqish**

Har bir partiya o'zining siyosiy dasturi orqali jamiyat rivojiga oid g'oyalarni taklif etadi. Bu dasturlar fuqarolarning tanloviga asos bo'ladi.

#### **Siyosiy raqobatni ta'minlash**

Partiyalar o'rtasidagi raqobat demokratik jarayonlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Raqobat natijasida samarali boshqaruv mexanizmlari shakllanadi.

<sup>3</sup> I.R. Bekov. Davlat boshqaruvida siyosiy partiyalarning roli. Huquq va burch. 2009 y. 1 son

### **Saylovchilarni safarbar etish**

Partiyalar fuqarolarni siyosiy jarayonlarda faol qatnashishga undaydi. Saylov arafasida fuqarolarga o'z tashabbuslari haqida ma'lumot berib, jamiyatdagi muammolarni qanday usulda hal etmoqchi ekanligi, partiya oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun nimalar qilmoqchi ekanligini targ'ibotlar bilan xalqni bu jarayonga qatnashishga chorlaydi.

### **Parlamentni shakllantirishda siyosiy partiyalar**

Siyosiy partiyalar parlament tizimining asosiy tayanchidir. Ularning parlamentdagi roli quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- qonun ijodkorligida ishtirok etish;
- fraksiyalar orqali siyosiy pozitsiyani ifodalash;
- hukumat faoliyatini nazorat qilish;
- davlat siyosatini belgilashda ishtirok etish.

O'zbekistonda Qonunchilik palatasi deputatlari asosan siyosiy partiyalar orqali saylanadi. Bu esa parlamentni partiyaviy vakillik asosida shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Hukumatni shakllantirishda siyosiy partiyalar**

Demokratik davlatlarda hukumat tuzilishi ko'pincha parlamentdagi siyosiy kuchlar nisbatiga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida ham siyosiy partiyalardan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan xalq vakillari:

- Prezident taqdimiga binoan hukumat rahbari nomzodini ko'rib chiqish va ma'qullash;
- Prezident taqdimiga binoan hukumat a'ziligiga nomzodlarni ko'rib chiqish va ma'qullash;
- Davlat budjetining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish kabi mutlaq vakolatlarga ega.

Shuningdek, O'zbekiston amaliyotida parlamentdagi partiyalar vakillari hukumat rahbari lavozimiga nomzod tomonidan taqdim etilgan hukumat dasturini muhokama qilish va tasdiqlashda faol qatnashadi. Xuddi shunday hududiy xalq deputatlari Kengashlarining ham hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash vakolati Konstitutsiyada mustahkamlangan.

### **Siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati**

Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati institutlari bilan chambarchas bog'liq. Ular:

- fuqarolar manfaatlarini davlat organlariga yetkazadi;
- jamoatchilik fikrini shakllantiradi;
- ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Partiyalar orqali jamiyat va davlat o'rtasida o'ziga xos ko'priklar yuzaga keladi.

### **O'zbekistonda siyosiy partiyalarning rivojlanishi**

Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimi shakllandi. Hozirgi kunda mamlakatimizda beshta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda.

Ularning faoliyati quyidagi normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi
- "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun;
- saylov to'g'risidagi boshqa qonunchilik hujjatlari.

So'nggi yillarda partiyalar faoliyatini liberallashtirish, ularning siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

### **Siyosiy partiyalarning demokratik rivojlanishdagi ahamiyati**

Siyosiy partiyalar demokratik jamiyatda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- siyosiy pluralizmni ta'minlaydi;
- fuqarolarning siyosiy faolligini oshiradi;
- davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi; - qonun ustuvorligini mustahkamlaydi.

Ular mavjud bo'lmagan jamiyatlarda avtoritar boshqaruv kuchayishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

### **Muammolar va takomillashtirish bo'yicha takliflar**

Davlatni boshqarish, hokimiyat tizimlarini shakllantirishda muhim rolga ega siyosiy partiyalar faoliyatida ayrim muammolar ham mavjud:

- aholining partiyalarga ishonchi pastligi;
- real siyosiy raqobatning yetarli emasligi;
- muhim qarorlarni qabul qilishda qat'iyatning yetishmasligi; - partiyalarning hududiy faoliyati sustligi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

- partiyalar faoliyatining ochiqligini oshirish;
- saylangan xalq vakillarining o'z saylovchilari bilan muntazam muloqotini yo'lga qo'yishni tizimlashtirish, saylov jarayonlarida o'z dasturida ko'rsatgan ishlarning ro'yobga chiqishini ta'minlash;

- partiyalardan saylangan xalq vakillari so'rovlariga davlat organlari va mansabdor shaxslarning o'z vaqtida javob berishini ta'minlash, sustkashlik, loqaydlikka yo'lgan mansabdorga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish;

- yoshlarning siyosiy faolligini rag'batlantirish;
- partiyaviy tizimni institutsional mustahkamlash. **Xulosa**

Siyosiy partiyalar davlat hokimiyatini demokratik ravishda amalga oshirish uchun o'ta zarur bo'lgan vazifani ham amalga oshiradilar. Ular siyosiy vaziyatning rivojlanishi va uning o'zgarishini o'z vaqtida anglab olishga intilib, hukmron doiralar va jamiyat orasida o'zaro samarali munosabatlar o'rnatilishi va davom ettirilishi uchun mas'uldirlar. Siyosiy partiyalar ko'pincha maslahat qo'mitalari, klublar, yordam guruhlari, yoshlar uchun madaniy-ijtimoiy markazlarni tuzadilar, katta siyosiy-targ'ibot ishlari olib boradilar, ommaviy mitinglar o'tkazadilar, ma'ruzalar, suhbatlar uyushtiradilar, partiya faollarining salohiyalari bilan shaxsiy aloqalarni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlaydilar. Siyosiy partiyalarning bunday vazifalarning bajarishi hukumat va partiya rahbariyatini xalqning ahvoli va fikri haqidagi ma'lumotlar bilan muntazam ta'minlaydi, ijtimoiy fikrni o'rganish borasida samarali ishlar olib borishni taqozo etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. -Toshkent, 26.06.2019.  
<https://lex.uz/en/docs/-4386848>

3. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-54191>
4. Saidov A.X. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent, TDYU, 2020.
5. Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq [Matn]: darslik / Axmedov D. va boshqa. -T.: TDYU nashriyoti 2025, -472 b.
6. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. - Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. 791 bet.
7. Bekov I.R. Davlat boshqaruvida siyosiy partiyalarning roli. Huquq va burch. 2009 y. 1 son

